



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 5 - 6 2023 YIL 8 MAY  
(MAXSUS SON)

## 9 MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

### XOTIRA UYG'ONSA GO'ZALDIR



Xotira so'zi – o'zbek tilining izohli lug'atida eslov bilan sinonim ravishda keltirilib, o'tmishni, o'tgan odamlarni, biror-bir sanani eslash, yodga olish qabilida qo'llaniladi.

Butun umri, hayoti, faoliyatini tibbiyotga baxshida etib,

O'zbekiston tibbiyotiga munosib hissa qo'shgan va oramizdan oxirat sari ketgan ayrim ustozlarimiz haqida muborak xotira kunlari arafasida satrlar bitishga jazm etdik.

Zero, inson xotirasi abadiy, garchi bu ustozlarimiz oramizda yo'q bo'lsalar-da, ular

tomonidan bitilgan kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va monografiyalar yo'lchi yulduz bo'lib yoshlarimiz yo'llarini yoritib turadi. Kitob yozgan olimning nomayi a'moli tarozi mahshargacha ochiq turishi hadisi shariflarda keltirilgan.

Hikmat



*Xotira hamisha muqaddas, qadr azizdir.*



Hikmat

## QALBIMIZDA MANGU YASHAYSIZ



**O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach", Toshkent tibbiyot akademiyasining yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida professori Turg'unpo'lat Obidovich Daminov 1941 yilning 26 aprelida Toshkent shahrida xizmatchilar oilasida dunyoga keldi. 1958 yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, shu yili tanlovdan muvaffaqiyatli o'tib, Toshkent davlat tibbiyot instituti talabasi bo'ldi.**

1964 yilda T.Daminov institutni imtiyozli diplom bilan tamomladi. O'sha yildan buyon u shogird tadqiqotchilikdan boshlab, hozirgi kunda kafedra professori sifatida yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida ishlab kelmoqda edi.

Ustoz 1969 yilda «K voprosu klinicheskogo techeniya tifoparatifoznix zabolevaniy u detey v sochetanii s tuberkulezom» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. «Kliniko-immunologicheskoye osobennosti ostrogo i zatyajnego virusnogo gepatita A i B u detey» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi T.Daminov Rossiya Tibbiyot Fanlari Akademiyasi akademigi V.Uchaykin va Latviya FA akademigi A.Blyuger rahbarligida Latviya gepatologik markazi va II Moskva Meditsina instituti bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida bazalarida bajardi, 1986 yilda Rossiya Meditsina Akademiyasi Pediatriya ilmiy-tekshirish institutida muvaffaqiyatli himoya qildi.

T.Daminovning yuqori malakali mutaxassis va ilmiy xodim sifatida shakllanishida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arboblari, professorlar X.Yunusova va O.Maxmudov kabi olimlarning hayotiy tajribalari va kasbga oid ko'nikmalari muhim o'rinni egalladi. T.Daminov ilmiy ishlarining natijalari milliy va xalqaro simpoziumlarda, kongresslarda, pediatriya s'ezdlarida, plenumlarda, muammoli hay'at yig'ilishlarida va fanlararo konferensiyalarda doimiy ravishda bayon qilingan. U 500 tadan ortiq doimiy ravishda chop etilayotgan

nashrlarning, ulardan 6 ta darslik, 14 ta monografiya, 45 tadan ortiq ustubiy tavsiyanomalar va qo'llanmalar muallifi hisoblanadi. Uning rahbarligida 21 ta doktorlik va 43 tadan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Ustoz tomonidan butun bir yirik olimlar – pediatrlar va infeksionistlarning atoqli arboblari yetishtirilgan, respublikada keng miqyosda ma'lum bo'lgan infeksionistlar va gepatologlarning maktabi yaratilgan. Shogirdlarining ko'pchiligi hozirgi kunda o'zlari qator tadqiqot yo'nalishlarini boshqarishadi va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda yetakchilik qilishadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, T.Daminovning shogirdlari nafaqat O'zbekistonning ko'plab hududlarida, balki MDH va uzoq chet mamlakatlarida samarali ish olib borishadi.

Turg'unpo'lat Daminovning ilmiy, shifokorlik va pedagogik faoliyati katta ma'muriy – jamoatchilik ishlari bilan muvaffaqiyatli mujassamlangan.

Xizmatlari davlatimiz va ilmiy-tibbiy uyushma tomonidan e'tirof qilinib, "Do'stlik" ordeni, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach" faxriy unvonlari, "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandi.

1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi, 2000 yilda – uning haqiqiy a'zosi, akademigi etib saylandi. 1999 yilda u Polsha Meditsina Akademiyasi haqiqiy a'zosi etib saylangan. 2004 yilda Rossiya Federatsiyasi Tibbiyot va texnika fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi) etib saylandi. Ilmiy ixtirolari uchun Albert

Shveytser xalqaro oltin medali bilan taqdirlangan.

T.Daminovning ilmiy dunyoqarashining kengligi va boy klinik tajribasi hozirgi kunda aholi sog'lig'ini saqlashda mamlakat tizimi uchun ahamiyatli. Bunga tasdiq tariqasida – T.Daminovning ilmiy grant dasturlarining rahbari, yuqumli kasalliklari bo'yicha ixtisoslashtirilgan seminar raisi, O'zbekiston Tibbiyot jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Markaziy Osiyo tibbiyot jurnali tahrir hay'atining a'zosi ekanligi asos bo'lib hisoblanadi, shuningdek, u qator ilmiy-amaliy dasturlar koordinatori va eksperti, ilmiy simpoziumlarning va amaliy shifokorlar uchun maktablarning tashkilotchisi hisoblanadi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) eksperti bo'lgan vaqtida T.Daminov respublikamizda poliomielitni tugatish yo'nalishida o'zining katta hissasi qo'shgan.

Xayrixohlik, yuqori mas'uliyatlilik, yuksak aql-zakovat va professionalizm, shuningdek, tabiatan kamtarinlik bilan ziyolilikning mujassamligi – bu fazilatlarining barchasi T.Daminovni har doim boshqalardan ajratib turar edi.

Taniqli fan arbobi, mashhur olim, mohir pedagog, barchamizning aziz ustozimiz Turg'unpo'lat Obidovich Daminovning yorqin xotirasi barchamizning qalbimizda mangu saqlanib qoladi.

Oxiratingiz obod bo'lsin muhtaram Ustoz!

**Shogirdlari va kafedra xodimlari**



**Inson hayotiga baho berar ekan, uning qanchalik uzunligiga emas, balki qanchalik mazmunga ega ekanligiga e'tibor qaratadi. Shuning uchun inson dunyoga kelibdiki o'z aql-zakovati va mehnati bilan insoniyat tarixida o'ziga xos iz qoldirishga harakat qiladi. Ana shunday tibbiyot sohasiga munosib hissa qo'shgan uztozlardan biri Omonturdi Mirtazayevdir.**

## TIBBIYOTGA BAXSHIDA UMR

Butun umri, hayoti, faoliyatini tibbiyotga baxshida etib, O'zbekiston tibbiyotiga munosib hissa qo'shgan Toshkent tibbiyot akademiyasi professori, tibbiyot fanlari doktori, Rossiya Federatsiyasi Tibbiyot va texnika fanlari akademigi Omonturdi Mirtazayev 1948 yili Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida tug'ilgan. 1971 yili Toshkent Davlat tibbiyot institutini imtiyozli diplom bilan tugatgan Omonturdi Mirtazayev 1971-1973 yillarda epidemiologiya kafedrasida stajyor-tadqiqotchi, 1973-1976 yillarda shu kafedraning aspiranti bo'lgan. 1976-1990 yillarda epidemiologiya kafedrasida assistent va katta o'qituvchi, 1991 yildan Ikkinchi Toshkent davlat tibbiyot instituti epidemiologiya kafedrasida dotsenti bo'lib ishlagan.

O'sha davrda u kafedradagi ko'p aspirantlar va yosh o'qituvchilar ichida mehnatsevarligi, tadqiqotlarning epidemiologik usullarini o'rganishga bo'lgan intilishi va ilmiy tadqiqotlarni izchillik bilan amalga oshira olishi bilan ajralib turar edi.

Marhum ustoz 1981 yil «Shahar va qishloqlarda salmonellyozlarning epidemiologik xususiyatlari» mavzusida 14.00.30. - Epidemiologiya mutaxassisligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1991 yili dotsent O.Mirtazayev Markaziy epidemiologiya ilmiy-tadqiqot institutiga (Moskva) maqsadli doktoranturaga o'qishga yuborilib, 1993 yili «O'rta Osiyo

mintaqasida salmonellyozlar epidemik jarayonning zamonaviy xususiyatlari va ushbu kasallikning epidemiologik nazoratini takomillashtirish yo'llari» mavzusi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1993 yildan 2010 yilgacha oldingi Ikkinchi Toshkent Davlat tibbiyot instituti hozirgi Toshkent tibbiyot akademiyasining epidemiologiya kafedrasida mudiri, 2011 yildan shu kafedra professori, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Bosh epidemiolog (1995-2002), Sog'liqni saqlash instituti direktori (2001-2005), TTA tibbiy-profilaktika fakulteti dekani (2005-2010) lavozimlarida ishlagan.

O'z kasbining fidoyisi bo'lgan ustoz 1993 yili tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga, 1998 yili professor ilmiy unvoniga, 2008 yili Rossiya Federatsiyasi Tibbiyot va texnika fanlari akademigi ilmiy unvoniga ega bo'lgan. 2018 yili esa «Sog'liqni saqlash a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Sanitariya-epidemiologiya sohasining rivojlanishiga hissa qo'shgan olim turli yillarda profilaktik tibbiyot sohasida faoliyat yuritib, ko'plab shogirdlar yetishtirgan. O'zbekistonning yetuk epidemiolog olimlaridan hisoblangan Omonturdi Mirtazayev rahbarligi ostida 6 ta darslik, 4 ta monografiya, 600 dan ortiq ilmiy ishlar, 18 ta o'quv qo'llanmalar chop etilgan.

O'zbekistonda birinchi marotaba o'zbek tilida



«Epidemiologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma» (2003), «Harbiy epidemiologiya» (2013), «Harbiy epidemiologiya» (2013), «Epidemiologiya» (2016), «Epidemiologiya» (2017 y. tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun), «Epidemiologiya» (2020 y. tibbiy profilaktika fakulteti talabalari uchun), «Epidemiologiya» (2022 y. davolash va tibbiy pedagogika fakulteti talabalari uchun) darsliklar chop etildi.

Omonturdi Mirtazayev ilmiy va malakali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berardi. Ustozning rahbarligida Epidemiologiya-14.00.30. mutaxassisligi bo'yicha 2 ta doktorlik, 6 ta nomzodlik va 20 ta magistrlik dissertatsiyalari himoya qilingan, Respublikada birinchi marta Sog'liqni saqlash salomatlik institutini va ushbu institutning 14 ta filialini tashkil etgan.

Ishonchimiz komilki, o'zining ilmi, salohiyati va bor iqtidorini profilaktik tibbiyot sohasiga baxshida etgan fidoyi inson, olim, ustozning hayot faoliyati yosh avlodga doim o'rnak bo'la oladi va xotiramizda abadiy yashaydi. O'tganlarning oxirati obod bo'lsin.

**Gulbahor MATNAZAROVA,**  
Epidemiologiya kafedrasida mudiri,  
tibbiyot fanlari doktori, professor



**Professor, tibbiyot fanlari doktori juda ko'plab shogirdlarning sevimli murabbiysi, kamtar va mehribon inson Farida Mirzayevna Ayupova 20 yildan ortiq vaqt Toshkent tibbiyot akademiyasining 1-son akusherlik va ginekologiya kafedrasida kafedra mudiri bo'lib faoliyat olib bordi. Respublikaning yetakchi akusher-ginekologi bo'lgan Farida Ayupova o'z kasbining yetuk mutaxassisi sifatida ham chet ellarda tanilganini alohida ta'kidlash joiz.**

## **O'Z KASBINING JONKUYARI EDI**



F.Ayupova 1957 yilda xizmatchi oilasida dunyoga keldi. 1980 yilda Toshkent Davlat Tibbiyot institutini tugatib, 1981 yilda akusherlik va ginekologiya mutaxassisligi bo'yicha internaturani tugallashga muvaffaq bo'ldi. Mustaqil ish faoliyatini Respublika ilmiy-tekshirish instituti qoshidagi klinikasida ordinator lavozimida boshladi. 1985 yilda reproduksiya bo'limida kichik ilmiy xodim vazifasida faoliyat olib bordi. Uning bu yo'nalishdagi faoliyati 1990 yilda tibbiyot fanlarini himoya qilish bilan o'z yakunini topdi. Shundan so'ng Farida Mirzayevna institutning ilmiy kotibi bo'lib ish faoliyatini boshladi.

F.Ayupova respublikada keng miqyosda o'smir qizlar salomatligini o'rganib, ilmiy-tekshirish ishlarini olib bordi. 1997 yilda «Reproduktivnoye zdorovye devochek podrostkov» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. U 2000 yilgacha o'smir qizlar ginekologiyasi bo'limini boshqarib kelgan. Shuningdek, 10 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligida o'smir qizlar ginekologiyasi bosh akusher-ginekolog bo'lib faoliyat olib bordi. 2000 yildan boshlab F.Ayupova TTAning o'quv ishlari bo'yicha prorektori va akusherlik va ginekologiya kafedrasini mudiri etib tayinlangan. Ustoz 2000-

2021 yillargacha mazkur kafedrani boshqardi.

Alohida ta'kidlash joizki F.Ayupova akusherlik va ginekologiyaning dolzarb muammolari yechimida katta hissa qo'shdi. Uning sa'y-harakati bilan respublikada ilmiy-pedagogik va malakali amaliyot vrachlari tayyorlandi. Jumladan, 40 dan ziyod tibbiyot fanlari nomzodlari va tibbiyot doktorlarni tayyorlashga hissa qo'shdi. E'tirof etish joizki u tayyorlagan shogirdlar respublika bo'ylab akusherlik va ginekologiya sohasi rivojida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Shogirdlarning ko'pchiligi hozirgi kunda mamlakatimizning tibbiyot oliy o'quv yurtlari, respublika viloyat perenatal markazlarida akusherlik va ginekologiya bo'limlariga rahbarlik qilmoqda.

F.Ayupova 300 dan ortiq ilmiy mahalliy va xorijiy maqolalar, 3 ta monografiya va 6 ta darslik yaratdi. Uning chuqur ilmiy salohiyati va tajribasi mamlakatimiz hududlarida tibbiy yordam ko'rsatish darajasini oshirish, tibbiy maslahatlar berishga ko'maklashdi. 12 yil davomida sog'liqni saqlash vazirligi topshirig'iga binoan Xorazm viloyatida onalik va bolalikni muhofaza qilishga mas'ul bo'lib, ushbu hududda onalar va

perenatal o'limni kamaytirish bo'yicha katta sa'y-harakatlar qildi.

“Akusherlik va ginekologiya” - 14.00.01 mutaxassisligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining eksperti, TTA ilmiy Kengashi a'zosi, Mudofaa bo'yicha ilmiy Kengash a'zosi, ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi Yevropa va dunyodagi ko'plab kongresslarga delegat bo'lib, u yerda taqdimotlar qilgan.

F.Ayupova bir necha grant ilmiy-tadqiqot loyihalariga rahbarlik qilgan. O'zbekistonda akusherlik va ginekologiya fani rivojiga ulkan hissa qo'shganini alohida ta'kidlash joiz. Minimal invaziv endoskopik jarrohlik zamonaviy usuliga ega mohir mutaxassis akusher-ginekolog, ko'plab oilalar uning yordami bilan sog'lom farzandlar ko'rishgan.

Afsuski jiddiy kasallik tufayli F.Ayupova bu dunyoni tark etdi. U hali ko'p ish qilishi mumkin edi. Hozirgi kunda ustozning izlanish ishlarini shogirdlari davom ettirmoqda. Ko'p sonli shogirdlari va hamkasabalari qalbida abadiy yashab qoladi.

**1-akusherlik va ginekologiya kafedrasini jamoasi nomidan professor G.BABAJANOVA, dotsent D.XODJAYEVA**



## TIBBIYOTIMIZNING BARHAYOT SIYMOSI

**Tibbiyot fanlari doktori, professor To'lagan Agzamovich Sagatov – Toshkent tibbiyot akademiyasida fundamental fanlardan bo'lmish Anatomiya va operativ jarrohlik va topografik anatomiya fanlarini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan olim, pedagog, yuqori malakali mutaxassis bo'lishi bilan bir qatorda, ikki o'g'il, ikki qizning mehribon otasi va besh nevaraning sevimli bobosi edi.**



Ustozimizning hayot daftarlarini varaqlar ekanmiz, unda eng oliyjanob inson sifatida, namunali mehnat faoliyati va ilmiy yutuqlarini ko'ramiz. Tibbiyot sohasiga munosib hissa qo'shgan T.Sagatov 1955 yilning 16 aprelida Toshkent viloyatida tug'ildi. O'qishga, bilimga chanqoqligi sabab u 1972 yili 4-sonli maktabni a'lo baholarga bitirdi. Maktabda o'qish paytida u tengdoshlaridan mehnatsevarligi, bilimga bo'lgan intilishi, ilm-fan yutuqlariga qiziqishi bilan ajralib turardi.

1971-1972 yillarda o'qishdan ajralmagan holda M.Fozilov jamoa xo'jaligiga ishga kirib, jamoa xo'jaligi yo'llanmasi bilan 1973 yili ToshDavTI ning tayyorlov kursiga o'qishga bordi. Tinimsiz harakat sabab 1974 yili ToshDavTI stomatologiya fakultetiga o'qishga kirib, 1979 yilda o'qishni muvaffaqiyatli tamomladi. U talabalik yillarida guruh kasaba uyushma qo'mitasi raisi, guruh sardori, kurs kasaba uyushma qo'mitasi raisi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.

O'z faoliyatini esa 1979 yili Sog'liqni saqlash vazirligining taqsimot komissiyasi tavsiyasi bilan ToshDavTIning sanitariya, gigiyena va stomatologiya fakultetiga qarashli odam anatomiyasi kafedrasida assistent sifatida boshladi. U anatomiya fanidan talabalarga dars berish bilan birga sanitariya va gigiyena fakultetining DND boshlig'i bo'ldi.

T.Sagatov 1989 yili aspiranturaga o'qishga kirgan davrida anatomiya kafedrasida qurilishini tashkillashtirishda rahbarlik qildi. Ta'kidlash joizki uning faol harakati tufayli 1990 yil 1 sentabrdan talabalar

anatomiya kafedrasida o'qishlari uchun barcha sharoitlar yaratilishida o'z hissasini qo'shdi.

Amaliy faoliyat bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarni ham olib borgan ustoz 1993 yili professorlar - N.Ahmedov va I.Baybekov rahbarligida "Morfologicheskaya xarakteristika vnutriorgannix sosudov tonkoy kishki pari subtotalnoy rezeksii jeludka v usloviyax saxarnogo diabeta" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Turli yillarda 2-ToshDavTIning Odam anatomiyasi kafedrasida assistent, katta o'qituvchi va dotsent lavozimida ishladi.

T.Sagatov 1995 yil doktoranturaga o'qishga kirib, ustozlari professorlar N.Ahmedov va X.Karimov qo'li ostida doktorlik ishini boshlab, 2003 yili 2-ToshDavTI qoshidagi ixtisoslashgan ilmiy kengashda "Strukturno - funktsionalnaya perestroyka gemomikrosirkulyatornogo rusla i tkanevix struktur tonkoy kishki pri intoksikatsiyax pestisidami na fone alloksanogo diabeta i bez nego" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. 2006 yili TTAning Odam anatomiyasi kafedrasida va OJTA kafedrasida professori sifatida faoliyat olib bordi.

Butun umri, hayoti, faoliyatini tibbiyotga baxshida etib, O'zbekiston tibbiyotiga munosib hissa qo'shgan T.Sagatovning 100 tadan ortiq ilmiy maqolalari respublikamiz, MDH va chet el jurnal va to'plamlarda chop etilgan. 30 ta o'quv uslubiy qo'llanma, 2 monografiya, 4 publisistik broshura, 4 ta O'zR davlat patent idorasi va 11 ta ixtiroli ishi guvohnoma sohibi bo'lgan.

Olimning yaratgan ilmiy maqolalari, qo'llanma, ixtiro va ratsionalizatorlik takliflari nafaqat O'zbekiston, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida ham qo'llanilayotganini alohida ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, "Tashqi zararli ekologik faktorlar"ning odam organizmiga ta'sir etish darajasi va davolash usullari ustida ilmiy izlanishlarga rahbarlik qilgan.

Domlaning uzoq yillik pedagogik faoliyati mobaynida minglab bilimli shifokorlar, olimlar, tibbiyot rahbarlari tayyorlangan, uning bevosita rahbarligida 2 ta nomzodlik va 1 ta doktorlik dissertatsiyasi yoqlangan. Ustoz 2007 yili N.Ahmedovning "Odam anatomiyasi" atlasini darsligiga mas'ul muharrirlik qilgan. Mazkur darslik turli yillarda OMH va Tibbiy profilaktika fakultetlari talabalari uchun o'zbek tilida lotin grafikasida chop etildi. 2005-2011 yillarda TTA qoshidagi ixtisoslashgan Ilmiy kengash a'zosi va ixtisoslashgan Ilmiy kengash qoshidagi aprobatsion seminar raisining o'rinbosari va "Tibbiyotda yangi kun" jurnali tahririyati hay'ati a'zosi bo'lib faoliyat ko'rsatgan.

Olim sog'liqni saqlash amaliyoti va tibbiyot fani rivojiga umrining adog'iga qadar hissa qo'shib yashadi. Hurmatli ustozimiz 2019 yili avgust oyida vafot etdilar. T.Sagatovning yorqin xotirasi doimo respublikamiz tibbiyot jamoatchiligi va uning shogirdlari xotirasida abadiy saqlanib qoladi.

**Z.SADIKOVA,**  
tibbiyot fanlari doktori





## SOHA FAOLIYATI RIVOJIGA MUNOSIB HISSA QO‘SHGAN OLIM

**Dunyoda jasorat ko‘rsatib ishlaydigan  
mutaxassislardan biri patologoanatomlar ekanligini  
ko‘pchilik bilmaydi.**

Aslida patologik anatomiya eng mashaqqatli soha hisoblanadi. Bu soha xodimlari pinhona bo‘lsa-da har kuni bir qancha kasallarga biopsiya diagnostikasi orqali kasalliklariga aniq diagnoz qo‘yib beradi. Demak, klinik vrachlarga diagnostika sohasida eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Klinikada kasalliklardan nobud bo‘lganlarni ham autopsiya orqali bevosita o‘lim sababi va diagnozini aniqlab, klinik vrachlarga maktab yaratadi. Patologoanatomlarni xorijda tabobatning ensiklopedistlari deyilishi bejiz emas.

O‘zbekiston patologoanatomlari katta judolikka uchradi. Toshkent tibbiyot akademiyasi patologik anatomiya kafedrasida dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi, talabalar uchun fidokorona ma‘ruzachi, amaliyotchi, patologiya sohasi olimi Isroil Umirov To‘rayevich bandalikni bajo keltirdi. Bu inson ham yuqorida ko‘rsatilgan o‘ta mas‘uliyatli va mashaqqatli soha bilimdoni edi. Surxondaryo viloyatining Denov tumanida

ishchilar oilasida yoshligi va maktab davrini o‘tkazib, Samarqand tibbiyot institutini namunalni tugatib, o‘zining ish faoliyati va bor umrini patologik anatomiya sohasiga bag‘ishlagan inson hisoblanadi.

Bu sohada olimlik kursiga o‘tirish uchun yoshlik davridan ustozlari akademik M.Abdullaxo‘jayeva rahbarligida ilm bilan shug‘ullanib, eng murakkab hisoblangan gipofiz bezini elektron mikroskopiya orqali tahlil qilgan. 1991 yili “Allotransplantasiya i immunodepressiya sharoitida gipofiz hujayralarining submikroskopik o‘zgarishlari” mavzusida tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasiga dissertatsiya yoqlagan. 1995 yili patologik anatomiya fani bo‘yicha dotsentlik ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan.

Ta’kidlash joizki I.Umironing TTA patologik anatomiya kafedrasida hamda Respublika patologik anatomiya xizmatini takomillashtirishda xizmatlari katta. Respublika bosh



patologoanatomni sifatida faoliyat yuritib, barcha viloyatlardagi hamkasblariga o‘z maslahati va yordamini ayamagan. TTA talabalarining sevimli o‘qituvchisi edi, institutning jamoat ishlarida doimo faol qatnashib kelgan.

I.Umironing biz hamkasblari, yelkadoshlari, og‘a-inilarining doimo yodida. Har yili 9 may – Xotira va qadrlash kunida eslanib, ruhi-poklariga duolar o‘qiladi. Ustozning oxiratlari obod bo‘lsin.

**Sog‘liqni saqlash vazirligi  
RPAM va  
TTA Patologik anatomiya  
kafedrasida xodimlari**



## ORZULARI BISYOR EDI...

**Jizzax viloyatining so'lim Baxmal tumanida 1972 yil 19 aprelda tug'ilib, ulg'aygan Xasan Abdusamatovich Mamatqulovning bolalik orzusi shifokor bo'lish edi. Bu qutlug' orzu uni 1990 yili 1-Toshkent Davlat Tibbiyot institutiga o'qishga yetakladi. Institutda o'qigan yillarida ham u bilimga chanqoqligi, barcha fanlarni qiziqish va ishtiyoq bilan o'zlashtirishi bilan boshqa kursdoshlaridan ajralib turardi. Shu bilan birga faol talaba sifatida tengdoshlari hamda ustozlarining hurmatini qozongandi.**



U 1996 yili 1-ToshDavTIning davolash fakultetini tamomlagach, 1996-1998 yillari "ichki kasalliklar" bo'yicha klinik ordinaturada, 1998-2001 yillari aspiranturada tahsil oldi. Ilmga chanqoq bo'lg'usi olim 2001 yilda professor A.Alyavi rahbarligida "Essensial gipertoniya bemorlarni davolashda irbesartan va enalaprilning markaziy va periferik gemodinamikaga, jismoniy yuklamaning tolerantligiga hamda chap qorinchaning remodellash ta'sirini qiyosiy baholash" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Yosh mutaxassisga institut rektorati katta ishonch bildirib, 2001 yildan institutning fakultet va gospital terapiya kafedrasida assistentlik lavozimida olib qoldi. O'sha yildan boshlab iqtidorli Xasan Abdusamatovichning ilmiy pedagogik faoliyati boshlandi. 2009 yildan boshlab esa dotsentlik lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Talabalarga fakultet va gospital terapiya fanlaridan chuqur bilim berish bilan bir qatorda yosh olim miokard infarkti o'tkazgan bemorlarda chap qorincha strukturasi qayta tuzilishi bo'yicha ilmiy izlanishlar ham olib bordi va shu maqsadda 2009-2011 yillari o'z ilmiy ishini doktoranturada davom ettirdi. 2011 yilning dekabrda "Diagnostika, prognozirovaniye, farmakoterapiya obratimoy disfunktsii i remodelirovaniye LJ posle ostrogo infarkta miokarda" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya etdi.

X.Mamatqulov 2012 yildan 2015 yilgacha Toshkent tibbiyot akademiyasining tibbiy pedagogika fakultetining fakultet va gospital terapiya, xalq tabobati va stomatologiya fakultetining ichki kasalliklar kafedrasida mudiri lavozimida

faoliyat ko'rsatdi. Uning pedagogik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega edi. Ma'lumki, pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fan yutuqlarini talabaga yetkaza olishi va nihoyat talabani ham ijodiy fikrlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rgata olishni talab qiladi. Olim boshchiligida kafedraning xodimlari fakultet va akademiya miqyosida ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, ta'lim tizimida ilg'or zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy salohiyatni oshirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishdi.

2015 yilda Xasan Abdusamatovichga yana bir yuksak ishonch bildirilib, u Toshkent tibbiyot akademiyasining Farg'ona filialiga direktor etib tayinlandi. Bu vazifada faoliyat ko'rsatish mobaynida uning mohir tashkilotchi, bilimdon mutaxassis, talabchan ustoz sifatida ko'p qirralari ochildi: filialning moddiy-texnika bazasi yaxshilandi, ilmiy izlanishlar kengaydi, ta'lim-tarbiya sifati yaxshilandi. Mas'uliyatli vazifada ishlash barobarida Xasan Abdusamatovich ko'plab ilmiy ishlarni amalga oshirdi, jumladan u 150 ga yaqin ilmiy ishlarning: xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy maqolalarning, tezislari, patentlar, uslubiy tavsiyanomalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarining muallifi edi.

2017 yildan Xasan Abdusamatovich amaliy ishga o'tib, Toshkent shahridagi "JEKSOFT" xususiy klinikasida bemorlar dardini yengillashtirishga, ular sog'lig'ini tiklashda zukko kardiolog sifatida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda edi. Afsuski kasallik tufayli bevaqt o'lim orzulari o'zi kabi beg'ubor bo'lgan Xasan

Abdusamatovichni navqiron yoshda 2020 yilda oramizdan olib ketdi. Uning orzulari bisyor edi: u ko'plab shogirdlar tayyorlash, ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish, yurak qon-tomir kasalliklarning oldini olish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandi...

Iqtidorli olimning oilasi ham havas qilgulik ibratli oilalardan biri edi. Yakkasaroy tumanidagi 8-tug'ruq majmuasida akusher-ginekolog sifatida faoliyat ko'rsatayotgan Faridaxon turmush o'rtog'ini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda ular bir-biridan shirin, solih to'rt farzandni tarbiyalab kelishayotgan edi. Farzandlarning uchtasi ota-onalari kasbini tanlashdi. Hozirda to'ng'ich farzand Abrorjon Toshkent tibbiyot akademiyasining kardiologiya yo'nalishida magistratura bosqichida, katta qizi Iroda davolash fakultetida grant asosida va kichik qizi Gulchehra Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ta'lim olmoqda. Xasan Abdusamatovichning amalga oshmagan niyatlarini ro'yobga chiqaruvchi, uning faoliyatini kelgusida davom ettiruvchi aqlli, zukko farzandlar bo'lib ulg'ayayotganligi ko'ngillarga bir oz bo'lsada taskin beradi...

Yosh bo'lsa-da, ammo, o'zining serqirra faoliyati tufayli o'zi faoliyat ko'rsatgan Toshkent tibbiyot akademiyasi va "JEKSOFT" xususiy klinika shifokorlari jamoasi xotirasida butun umri mazmuni o'z kasbiga sadoqat, hurmat bilan yo'g'rilgan Xasan Abdusamatovich Mamatqulovning porloq yodi saqlanib qoladi....

Zotan, yaxshilar yodi, ular xotirasi muqaddasdir...

**Shoira QODIROVA,  
katta o'qituvchi**



## TIBBIYOT RIVOJIGA SALMOQLI HISSA QO'SHGAN OLIM

**Respublikada taniqli olim, tibbiyot fanlari doktori, professor Najiyulla Habibullayevich Shomirzayev tibbiyot fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, qolaversa, pulmonologiya, yurak-qon tomir jarrohligi, umumiy jarrohlik amaliy masalalarining fundamental muammolarini kompleks ishlab chiqishni muntazam amalga oshirgan yuqori malakali mutaxassis hamda ustoz edi.**

N.Shomirzayev 1937 yil 4 dekabrda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tavallud topdi. 1962 yilda institutni tamomlagach ToshDavTning operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedrasida, so'ngra ToshDavTI Markaziy ilmiy tekshirish laboratoriyasi morfologiya bo'limida kichik ilmiy xodim lavozimida ishladi.

O'z ilmiy izlanishlarini davom ettirgan N.Shomirzayev 1966 yilda nomzodlik dissertatsiyasini, 1973 yilda Fanlar akademiyasi akademigi, professor K.Zufarov rahbarligida "O'pkalardagi ba'zi operativ aralashuvlarda ko'krak qafasi a'zolaridagi kompensator-moslashuv jarayonlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

1973 yildan to 1976 yilgacha u ToshDavTI Markaziy ilmiy-tekshirish laboratoriyasi, 1979 yildan 2005 yilgacha ToshDavTI Operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedrasiga rahbarlik qildi.

Ilmiy ishlarga ham alohida e'tibor qaragan ustoz "Normal va topografik anatomiya" darsligi, respublikada birinchilardan bo'lib, 3- va 4-kurs talabalari uchun "Operativ jarrohlik" o'quv qo'llanmasini (2 marta nashrdan chiqqan), 2 jildlik "Klinik anatomiya" darsligini nashr ettirgan.

Ustoz Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy tibbiy Kengashi raisi (1985-1987 va 1990-2000) lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Bundan tashqari, 1982-1985 yillarda ToshDavTI malaka oshirish fakulteti dekani, ToshDavTI qoshidagi yosh muallimlar universitetining rektori, 1988-1990 yillarda Ittifoq oliy

ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi o'quv-uslubiy birlashmasi Prezidiumining a'zosi, 1995 yilda O'zbekiston Xalqaro aloqalar milliy assotsiatsiyasi tibbiyot seksiyasi boshqaruvining a'zosi sifatida o'ziga yuklatilgan vazifalarini to'laqonli bajargan.

Ustozning mehnat faoliyatlariga nazar solsak turli yillarda turli lavozimlarda soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelganini ko'rishimiz mumkin. U 1985 yildan to 1987 yilgacha va 1990 yildan 2000 yilgacha Sog'liqni saqlash vazirligining tibbiyot ilmini boshqardi. Bundan tashqari, 1985 yildan 1998 yilgacha "O'zbekiston tibbiyot jurnali"ning bosh muharriri o'rinbosari, 1973-1978 va 2002-2005 yillarda "Medik" ko'p adadli ro'znomasining muharriri vazifasida faoliyat yuritgan.

N.Shomirzayevning hayot kitobida yangi sahifa ochilib, 1987 yildan to 1990 yilgacha ToshDavTI rektori lavozimida faoliyat olib bordi. Bundan tashqari, 1972-1973 yillarda - xalq deputatlari tuman kengashining deputati, 1990 yildan 1995 yilgacha - xalq deputatlari shahar kengashining deputati sifatida sog'liqni saqlash, madaniyat, fan va o'quv muassasalari bo'yicha hay'atni boshqargan.

Samarali faoliyati davomida 1997 yildan 2020 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Morfologlar jamiyati raisi sifatida tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tizimi takomillashtirildi. Bundan tashqari, Buxoro Davlat tibbiyot instituti faxriy professori sifatida tanlangan.

Sohaning fidoyisi N.Shomirzayev



rahbarligida 7 ta doktorlik va 23 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilinganini ta'kidlash joiz. Ustoz tomonidan 450 dan ortiq ilmiy ish, shu jumladan 4 ta monografiya, 4 ta ma'lumotnoma, 11 ta darslik va 58 ta o'quv qo'llanma nashr qilingan hamda 11 ta mualliflik guvohnomasi, 11 ta ratsionalizatorlik takliflari olingan.

El-yurt ishonchi, hurmati va e'zoziga erishgan soha fidoyisi N.Shomirzayev «Hurmat belgisi» ordeni, «Mardonavar xizmatlari uchun», «Mustaqillikning 15 yilligi» medallari, «Sog'liqni saqlash a'lochisi» belgisi, O'zbekiston Oliy kengashi Prezidiumi va O'zbekiston respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Faxriy yorliqlari, Butunittifoq anatomlar, gistologlar va embriologlar jamiyatining «Morfologiyadagi katta xizmatlari uchun» oltin medali, Abu Ali Ibn Sino ko'krak nishoni bilan mukofotlangan.

Olim, o'ziga xos ijodkor, ustoz va murabbiy N.Shomirzayevning tibbiyot sohasidagi faoliyati va ilmu fanga mehr qo'ygani bo'lajak shifokorlarga o'rnatilgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

**R.USMONOV,**

**Odam anatomiyasi, operativ jarrohlik va topografik anatomiya kafedrasini mudiri, t.f.d., professor, I.GULMANOV, mazkur kafedraning katta o'qituvchisi**





## INSON – ULUG‘, QADR – AZIZ

**Ajdodlarni xotirlash, ezgu ishlarini yodga olish, qolaversa, bu yorug‘ dunyoda umrguzaronlik qilib, keksalik gashtini surayotgan faxriylarimizni ardoqlash, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.**

Ilm-fan rivojiga qo‘shgan o‘z kasbining fidoyilari, olimlar va professorlarni sanab adog‘i yeta olmaymiz. Ilm-fan fidoyilari hamda e‘tirofu ehtiromga loyiq insonlar haqidagi maqolalar bilan tanishing.

Qadrlash (qadr, qadriyat) – o‘zbek tilining izohli lug‘atida biror-bir inson, sana, marosimni hurmatini boshqalardan balandroq ko‘targan holda mamomiga yetkazish, qiymatini ko‘tarish ma‘nolarida keltiriladi.

9 may – Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan biz ko‘p yillar mobaynida Akademiyamizda faoliyat yuritib, ayni kunlarda keksalik gashtini surayotgan ustozlarimiz haqida satrlar bitishga jazm etdik. “Tibbiyotnoma” ro‘znomasi mo‘jazzgina bo‘lgani bois ayrim ustozlar haqida satrlar bitildi, aksari ularning har birlarini alohida kitob qilib chop ettirgan bo‘lsak-da ozlik qiladi.

## E‘ZOZU EHTIROMGA LOYIQ SHIFOKOR

**Barchamizga ma‘lumki shifokorlik — mashaqqatli kasb. O‘zgalar dardi bilan, ularning taqdiri haqida qayg‘urib yashash albatta, oson emas. Bemorlarning tezroq tuzalib, oilasi bag‘riga sog‘-omon qaytishi esa nafaqat tibbiy muolajalar, balki shirin so‘z va mehrga ham bog‘liq.**



Tibbiyotda faqat bilim va tajriba bilangina muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun sabr-matnat, qolaversa, jasorat va fidoyilik ham kerak. Shifokor har bir bemorga o‘z aka-ukasi, opa-singlisi, yaqinlaridek munosabatda bo‘lsagina, xalq orasida hurmat, nom va mehr qozonadi.

Yurtimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev g‘amxo‘rligi ostida sog‘liqni saqlash sohasi xodimlari mehnati doimo e‘tirof etib kelinadi. O‘z hayotini oliyanob ishga – insonning sog‘lig‘i va hayoti to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga bag‘ishlagan tibbiyot xodimlari faoliyatining obro‘-e‘tibori va ijtimoiy ahamiyatini oshirish, mas‘uliyatli va murakkab mehnatini moddiy rag‘batlantirish va taqdirlash tizimini takomillashtirish maqsadida «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a‘lochisi» ko‘krak nishoni ta‘sis etilgan.

«O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a‘lochisi» ko‘krak nishoni bilan sog‘liqni saqlash xodimlari hamda aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash ishida o‘zini ko‘rsatgan, yetarlicha ish tajribasiga va kasb malakasiga ega bo‘lgan, o‘z faoliyatida yuqori natijalarga erishganlar orasida Toshkent tibbiyot akademiyasi xodimlari ham borligi quvonarli.

Mazkur ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan bir guruh tibbiyot sohasining fidoyi faxriylari orasida ushbu sohada uzoq yillar vatanparvarlik va sadoqat namunasini

ko‘rsatib xizmat qilgan tibbiyot faxriysi Mamlakatxon Mahkamova Nabiyevna ham bor. Mamlakatxon Mahkamovaga sog‘liqni saqlash tizimida mas‘uliyatli lavozimlarda sidqidildan fidokorona xizmat qilgan, mamlakatimizning tibbiyot sohasini rivojlantirishga samarali hissa qo‘shib kelayotgan tibbiyot xodimi, shifokor-professor deya tarif berishimiz mumkin.

O‘z sohasining fidoyisi Mamlakatxon opa 1944 yil 20 avgustda Andijon shahrida tug‘ilgan. 1968 yil Andijon tibbiyot instituti davolash ishi fakultetini bitirib, o‘z mehnat faoliyatini 1968 yilda Andijon shahar 3-poliklinikasida jarrohlik ishi bilan boshlagan. 1972 yildan Andijon tibbiyot instituti “Gospital jarrohlik” kafedrasida klinik ordinatori sifatida faoliyat yuritib, keyinchalik 1977 yili Moskva A.N.Bakulev nomidagi yurak-qon tomir ilmiy izlanish instituti aspiranturasida tahsil olgan. Tibbiyot fanlari nomzodligi va tibbiyot fanlari doktorligi darajalarini olgan. Mamlakatxon Mahkamova uzoq yillar davomidagi ilmiy faoliyati natijasida tibbiyot fanlari nomzodligi va tibbiyot fanlari doktorligi darajalarini egalladi va 1992 yildan Toshkent tibbiyot akademiyasining “Fakultet va gospital jarrohligi” kafedrasida professori lavozimlarida xizmat qildi. Minglab bemor bolalarning xastaliklardan xalos bo‘lishi yo‘lida ilmiy izlanishlar olib bordi, sohada yangiliklar yaratdi.

Mamlakatxon Mahkamova faoliyati

davomida yuzlab shogirdlar yetishtirgan. Ular orasida tibbiyot fanlari doktorlari va fan nomzodlari ham ko‘p. Ustozning ham tibbiy ta‘lim ravnaqi yo‘lidagi xizmatlari beqiyos. U Toshkent tibbiyot akademiyasidagi ko‘p yillik faoliyati davomida minglab shifokorlar tayyorlash jarayonida ishtirok etdi. Ko‘plab olimlar yetishtirdi. Mamlakat opa hozir ham talabalar hayotidan uzilib qolmagan. Chunki xonadoni shundoqqina Shifokorlar shaharchasida joylashgan. Qolaversa, shogirdlari, hamkasblari tez-tez yo‘qlab turadi. Yetmish to‘qqiz yoshli olima bugungi kunda keksalik gashtini surish bilan birga ko‘plab shogirdlari bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarining qator yo‘nalishlariga rahbarlik qilib, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda davom etmoqda.

Bu kabi fidoyi tibbiyot xodimlari borligi Toshkent tibbiyot akademiyasining haqiqiy faxri hisoblanadi. Butun faoliyati davomida qasamyodiga sodiq qolib, shifokor nomiga dog‘ tushirmagan, minglab bemorlar duosini olgan bunday fidoyi insonlar hamisha e‘zozu ehtiromga loyiq.

**S.RUSTAMOVA,  
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani muovini**



## OLIM – JAMIYATNING KO'MAKCHISI

**O'z sohasining fidoyisi, olimimiz haqida bitilgan mo'jazgina maqolamizni bejiz shunday nomlamadik, zero, haqiqiy olim o'z yurti, o'zi istiqomat qilayotgan jamiyatining haqiqiy ko'makchisi hisoblanadi.**

To'lqin Iskandarov Iskandarovich yurtimizning yetakchi gigiyenisti, toksikologi va ekolog olimlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Rossiya Federatsiyasi tibbiyot-texnika fanlari akademiyasining akademigi, tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan vrach, oliy toifali vrach T.Iskandarov 1939 yili 25 aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan. Yoshligida qalbida shifokorlikka bo'lgan qiziqishi, ilmga bo'lgan havas uni tinmay izlanishga undadi. Tibbiyot sohasiga bo'lgan qiziqish sabab tibbiyot oliygohida ta'lim olishni ma'qul ko'rdi. Ustoz 1962 yilda Toshkent Davlat tibbiyot institutining sanitariya-gigiyena fakultetini tamomlab, 1964 yilda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbek sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ITI qoshidagi aspiranturaga o'qishga kirdi.

O'zining hayot yo'lini belgilab olgan, kelgusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib, o'z sohasining olimi bo'lishga bel bog'lagan T.Iskandarovga 1977 yili professor ilmiy unvoni berildi. Sohaning yetuk olimlaridan saboq olib, puxta bilim egallagan ustoz 1989 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining «Ekologiya» mutaxassisligi bo'yicha muxbir a'zosi, 2000 yilda Fanlar akademiyasi akademigi etib saylandi.

Ezgu intilishi, olgan bilimlarini hayotga tatbiq etish maqsad qilgan To'lqin Iskandarov Toshkent Davlat tibbiyot institutini tamomlagach pedagogik faoliyatini mehnat gigiyenasi kafedrasida boshladi. U fidoyi va izlanuvchan rahbar sifatida 25 yildan ortiq vaqt davomida Toshkent Davlat tibbiyot instituti sanitariya-gigiyena fakulteti kommunal gigiyena kafedrasida mudiri lavozimida ishlagan.

Bunday ijobiy o'zgarishlar institutning professor-o'qituvchilari va tadqiqotchi xodimlari uchun keng imkoniyat eshiklarini ochdi. Shogirdlariga mehribon ustoz T.Iskandarov gigiyenistlar, toksikologlar, ekologlar maktabini yaratdi. Uning rahbarligi va ilmiy maslahatlari ostida 76 nafar fan nomzodi va 26 nafar fan doktori tayyorlandi.

Oliy ta'lim sohasida sifatli va malakali kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari hamda ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganini alohida ta'kidlash joiz. T.Iskandarov tomonidan 780 ta ilmiy ishlar nashr etilgan. Jumladan 46 ta monografiya, 7 ta darslik, 81 ta ixtiro va patentlarga mualliflik guvohnomasi, 58 ta O'zbekiston Respublikasi sanitariya me'yorlari, qoidalari va gigiyenik normativlari, 118 ta gigiyena, ekologiya va toksikologiya masalalariga bag'ishlangan uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalardir. Bundan tashqari, uning muharrirligida 47 ta ilmiy ishlar to'plami va konferensiya materiallari nashr etilganini ham aytish joiz.

T.Iskandarovga kasbga sadoqatli, tibbiyot sohasining

fidoyisi deya ta'rif berish mumkin. Yuksak hurmat va sharaftga muvassar bo'lgan yetuk olim 1980-1989 yillar va 1995-2010 yillarda Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ITI direktori, 1989-1995 yillarda Sog'liqni saqlash vazirligida O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi, Sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari lavozimlarida ishladi.

Malakali kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari hamda ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasi uchun T.Iskandarov «Mehnat Qizil Bayroq», «Shon-sharaf belgisi» ordeni, «Jasoratli mehnati uchun» medali, «Sog'liqni saqlash a'lochisi», «Oliy ta'limdagi a'lo muvaffaqiyatlari uchun», «SSSR ixtirochisi» ko'krak nishonlari, to'rtta QXXK medali, «O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga 60 yosh» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Olim nafaqat yurtimizda balki xorijda ham alohida e'tirofqa sazovor bo'lgani faxr tuyg'usini baxsh etadi. Olim 2000 yilda Angliyaning Kembrij universiteti tomonidan «20 asrning atoqli odamlari» medali bilan taqdirlanib, uning nomi mazkur universiteti tomonidan tuzilgan va nashr etilgan «20 asrning atoqli odamlari» ro'yxatiga kiritilgan. Tinimsiz mehnati o'z navbatida e'tirof etilib, 2019 yilda «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan.


Hozirgi vaqtda T.Iskandarov sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ITIda pestitsidlarni gigiyenasi va toksikologiyasi laboratoriyasi mudiri hamda kommunal gigiyena va mehnat gigiyenasi kafedrasining jamoatchilik asosida professor-maslahatchi lavozimida ishlab kelmoqda.

Bir so'z bilan aytganda olimning katta ilmiy salohiyati, tashkilotchiligi va amalga oshirgan ishlariga berilgan munosib baho deb aytish mumkin.

T.Iskandarov el tanigan olim bo'lish bilan birga ahil oilaning boshlig'idir. Hayotda va turmushda hamisha unga yelkadosh bo'lib kelayotgan rafiqasi bilan birgalikda el koriga yaraydigan farzandlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishgan.

El-yurt ishonchi, hurmati va e'zoziga erishgan fidoyi olim, ustoz va murabbiy To'lqin Iskandarov erishgan yutuqlari barchasi uning hayot sarhadlarida to'g'ri yo'lni tanlagani, ilmu fanga mehr qo'ygani va mashaqqatli mehnati samarasidir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Go'zal ISKANDAROVA,**  
Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasida mudiri



## IBRATLI UMR

**Ayol – oila shamchirogi. O‘z xonadonini mehri bilan isituvchi, unga ko‘rkamlik va fayz bag‘ishlovchi hamdir. Agar ayol ilm bilan shug‘ullansa, bu uning yana bir go‘zal fazilat sanaladi. Erkak ilmi bo‘lsa – farzand ilmi bo‘ladi, ayol ilmi bo‘lsa – millat ilmi bo‘ladi, deyishadi donolar. Bu hikmat ayollar sha‘nini yana bir qadar yuksaklikka ko‘taradi. Ana shunday olimlardan biri tibbiyotimiz fidoyisi, professor Rixsixon Sobirova Abdukadirovnadir.**

Rixsi Sobirova 1948 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1966 yilda o‘rta maktabni oltin medal bilan tugatib, shu yili Toshkent Davlat tibbiyot institutiga o‘qishga kirgan.

Ustozning hayot yo‘llariga nazar soladigan bo‘lsak turli lavozimlarda faoliyat yuritganini ko‘rish mumkin. O‘z faoliyatini 1974 yildan boshlab Toshkent Davlat tibbiyot institutida assistent, dotsent, professor, kafedra mudiri lavozimlarida ishlagan. Soha rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan tibbiyot fanlari doktori, professor Rixsi Sobirova Tibbiy va biologik kimyo kafedrasida professor lavozimida 2012 yildan beri ishlab kelmoqda.

Ko‘plab shogirdlarining sevimli ustoziga aylangan R.Sobirova 1982 yilda «Osobennosti obmena lipidov pri eksperimentalnoy giperxolesterinemii na fone xronicheskoy intoksikatsii fosfamidom» mavzusida nomzodlik, 1994 yilda «Xarakteristika sostoyaniya strukturi i funktsii membrannoy sistemi pri eksperimentalnix patologiyax podjeludochnoy jelezi i puti patogeneticheskoy korreksii» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Tinimsiz harakat, ilmga bo‘lgan chanqoqlik tufayli R.Sobirova pedagogik faoliyati davomida tajribali, yuqori malakali pedagog va mutaxassis bo‘lib yetishdi. Ta’kidlash joizki u ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni yuqori metodologik saviyada olib boradi, o‘qitishda

zamonaviy texnik anjomlar va adabiyotlardagi ma’lumotlardan unumli foydalanadi.

Ustozning yana bir e’tiborli jihati o‘z ustida tinmay ishlaydi, muntazam ravishda kasbiy mahoratini oshiradi, jamoatchilik ishlarida faol qatnashadi.

Iste’dodli ilmiy izlanuvchi, talabchan pedagog, ilmiy rahbar R.Sobirova 255 dan ortiq ilmiy, o‘quv va o‘quv-uslubiy nashrlar, shu jumladan 8 ta darslik, 4 ta monografiya, 6 ta mualliflik guvohnomasining muallifi hisoblanadi. Qator xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar qatnashchisi bo‘lish bilan birga biologik kimyo ixtisosligi bo‘yicha 1 fan doktori va 9 fan nomzodini tayyorlagan. Bundan tashqari, fundamental fanlar bo‘yicha grant loyihalariga rahbarlik qilgan.

Tibbiy va biologik kimyo kafedrasida professori lavozimida ishlayotgan davrida magistrnlarni o‘qitish va ilmiy ishlar bo‘yicha javobgarlik qilgan. Bu davrda uning tomonidan kafedrada qator tashkiliy ishlar amalga oshirildi. «Tibbiy biokimyo» mutaxassisligi bo‘yicha kvalifikatsion tavsif va DTSga moslangan holda o‘quv dasturlari va rejalar qayta ko‘rib chiqilib, o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilgan. Yana bir ahamiyatli jihati olimaga o‘quv jarayonida ingliz tilidan keng foydalanishning targ‘ibotchisidir.

Rixsi Abdukadirovna o‘zining ilmiy hamda pedagogik faoliyati davrida vijdonli, mas’uliyatli, o‘ziga va talabalarga nisbatan talabchan



ustozdir. O‘zining pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib bormoqda. O‘z ustida ishlash unga xos bo‘lgan muhim fazilatdir. Shu bois jamoada barcha hamkasblari va talabalar orasida katta hurmat va e’tiborga sazovor. «Mo‘tabar ayol» ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Soha rivojiga hissa qo‘shib kelayotgan ustoz oilada ham mehribon ona hisoblanadi. Ikki nafar farzandini yurt koriga yaraydigan mutaxassis etib tarbiyalaganini alohida ta’kidlash joiz.

Havas qilsa, ibrat olsa, andoza olsa arziydigan oilaning piru badavlat sohibasi shirindan-shirin nabirajonlarning sevimli buvijonisi. Har ikkisi ham fan doktori darajasini olishgan ikki farzandning mehribon onajonisi, ishxonada esa mehribon ustoz, ilmiy rahbar el e‘zozlagan olima, fan olimiga ulkan hissa qo‘shgan professor Rixsixon Abdukadirovna haqilarida har qancha gapirsak va yozsak kamlik qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda uning hayoti ilm yo‘lidagi tinimsiz izlanishlari erishgan va erishayotgan yutuqlari kelajagimiz bo‘lgan yoshlar uchun ibrat maktabidir, desak aslo mubolag‘a qilgan bo‘lmaymiz.

**Qutbiddin NIZOMOV,**  
Sog‘liqni saqlash a’lochisi, Turon  
Yozuvchilar uyushmasi haqiqiy a’zosi,  
**Alijon FAQIROV,**  
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi  
haqiqiy a’zosi, Turon xalq yozuvchisi



## TINIB-TINCHIMAS PROFESSOR...

**Tinib-tinchimaydigan, izlanuvchan, bilim olishga intiluvchan, olgan bilimni boyitib, charxlab turadigan insonlar o'z mehnatlari bilan e'tirofu ehtiromgaga sazovor bo'lishadi. Ana shunday insonlardan biri Tibbiy va biologik kimyo kafedrasining faxriy professori Stalina Kasimova Salixovnadir.**

Shu kunlarda uyda bo'lishlariga qaramay izlanishdan, ilm bilan shug'ullanishdan charchamaydigan faxriy ustozni ko'rgani borganimda har doimgidek kompyuter oldida o'tirganlariga guvoh bo'ldim.

Professor S.Kasimova 1936 yil 27 dekabrda Samarqand shahrida tug'ilgan. 1954 yilda o'rta maktabni bitirib, O'rta Osiyo Politehnika institutining kimyo-texnologiya fakultetiga o'qishga kiradi. Oliyog'ni 1959 yilda «Silikat texnologiya»si mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli bitirgan qahramonimiz 1959 yilda O'zbekiston Respublikasi FA Kimyo institutida katta tajribakor bo'lib ishlagan. 1960 yili aspiranturaga kirib, SSSR Fanlar Akademiyasining Silikatlar kimyosi institutiga safarbar qilinib (Leningrad shahri), u yerda 1964 yili «Natriy-stronsiylikatli shishalarining fizik-kimyoviy xossalari» mavzusida texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun dissertatsiyani himoya qilib, O'zbekiston Respublikasi FA Kimyo institutiga ishga qaytdilar. 1966-1970 yillarda S.Kasimova O'zSSR Vazirlar Mahkamasida Fan bo'limida katta referent bo'lib ishlagan bo'lsa, 1970 yilda O'zSSR FA Kimyo institutiga katta ilmiy xodim qilib o'tkazildi va Leningradagi S.I.Vavilov nomidagi Davlat optika institutiga safarbar qilindi. U yerda 1975 yilda doktorlik dissertatsiyasini sanoatda ishlatiladigan lazer atermal shishalarini yaratishga bag'ishlangan ish bo'yicha himoya qilib, texnika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.


S.Kasimova - shishalar sintezi sohasi va ularning xossalari o'rganishda yetuk mutaxassis hisoblanadi. Aynan olimani birinchi bo'lib shishaning ko'pgina xossalari bo'yicha sistematik tadqiqotlar o'tkazdi. Yangi lazer atermal shishasi sifatida GLS 10 lazer shishasi sanoatdagi lazer shishalar ichida birinchi qatorda turadi. Bu shunday shisha hisoblanadiki, u keng ko'lamda ishlatiladigan atermal shishalar ichida eng yaxshisi va rangsiz optik tuzilmalardagi shishalar sifatida ham ishlatilishi mumkin.

Gollandiyada ingliz tilida chiqarilgan ma'lumotnomalar to'plamida S.Kasimovaning ishlari 65 marotaba

qayd qilingan. Ishlarining nazariy va eksperimental natijalari «Stronsiy v stekle» va «Mikrotvyordost xrupkix opticheskix materialov» monografiyalarida umumlashtirilgan. Bu monografiyalar mahalliy va chet el jurnallarida ko'zga ko'ringan mutaxassislar tomonidan yuqori baholangan tahsinga sazovor. S.Kasimova 450 ilmiy ishlar, shu jumladan 16 ta monografiya, 12 ta SSSR mualliflik guvohnomalarining muallifi hisoblanadi. Shulardan 100 tasi MDH nashriyotlarida, 80 tasi esa xalqaro nashriyotlarda ingliz tilida chop etilgan. Bundan tashqari, professor 2 ta fan doktori va 15 ta fan nomzodlariga rahbarlik qilgan.

Shu o'rinda S.Kasimova bir qator respublika va xalqaro konferensiyalarda o'z ma'ruzalari bilan qatnashganini aytish joiz. Izlanishlarining natijasi Belgiya, Yaponiya, Germaniya, Hindiston, Ispaniya, Xitoy, AQSH, Yaponiya, Italiya, Gollandiya, Bolgariya, Turkiya, Angliya, Portugaliya, Shveysariya, Fransiya, Avstriya, Chexiya va boshqa mamlakatlardagi xalqaro kongresslarda ma'ruzalarda yoritilgan.

Olimani yillar mobaynida ilmiy izlanishlar olib bordi. 1981 yilda «Anorganik va fizkolloid kimyo» kafedrasida bo'yicha professor ilmiy unvonini olganini aytish joiz. U 1990 yilda tibbiyot institutlarining talabalari uchun «Biogenniye elementi» (Toshkent), 1997 yilda «Biogendik elementter» (Bishkek) qirg'iz tilida, 2001 yilda «Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar» (kirill alifbosida), 2005 yilda esa «Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar» o'zbek tilida lotin grafikasida, 2010 yilda «Nanotexnologii v meditsine», 2011 yilda «Fizicheskaya i kolloidnaya ximiya», 2011 yilda «Hujayra kibernetikasi. Nanotexnologiyalar», 2017 yilda «Nanotexnologii v stroitelstve i arxitekture XXI veka» darsliklarini, 2020 yilda «Zdravstvuyte roboti!!!» nomli ilmiy-ommabop adabiyotni yaratdilar. Nafaqada uyda o'tirib, dunyo yangiliklardan chetda qolmay va ilmning eng zamonaviy



yo'nalishlari bilan qiziqibgina qolmay, yosh avlod bilan ulashishga intilishlarini e'tirof etish joiz.

Olimaning «Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar» darsligi 2003 yilning eng yaxshi darsligi deb topilib, Respublika tanlovida 3-darajali diplom bilan taqdirlangan. 1996 yil may oyida S.Kasimova Xalqaro muhandislik akademiyasining haqiqiy a'zosi, 1996 yilning oktabr oyida - Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining xorijiy a'zosi qilib saylangan. Samarali mehnatlari natijasida 2006 yilda «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlandi.


Ilm sohasidagi faolligi olimani butun dunyoga tanitgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qanchadan-qancha mashhur insonlar bilan tanish bo'lib, do'stlashish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Ular qatoridan Nobel mukofotining sovrindorlari Laynus Poling, akademik Proxorov, birinchi ayol kosmonavt V.Tereshkovalar joy olgan.

Mehridaryo ustozning shogirdi bo'lish qalblarda iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Olimaning ilmiy faoliyati, ayniqsa yoshlar, talabalarni qiziqtiradi. Shu munosabat bilan tibbiy va biologik kimyo kafedrasining xodimlari tez-tez uchrashuvlar uyushtirib turadi. Ha, professor Stalina Kasimova tinib-tinchimas o'zbek olimasi. Olimaning hayot yo'li, ilmiy olami yosh avlodni tarbiyalashda namuna bo'la oladi.

**Xosiyat TADJIYEVA,  
Tibbiy va biologik kimyo kafedrasini  
dotsenti**



## UMR MAZMUNI...



**Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'zni beqiyos hisoblanadi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'zni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan, ular har bir sohada o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan obro'-e'tibor qozonib kelishadi.**

Ana shunday insonlardan biri Toshkent tibbiyot akademiyasining 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida yarim asrdan ortiq vaqt davomida samarali mehnat qilib, hozirda nafaqada bo'lgan professor, hurmatli olim, jonkuyar ustoz – Naima Nabiyevna Nasriddinova hisoblanadi.

Naima Nasriddinova 1964 yili Toshkent Davlat meditsina institutining davolash fakultetini "Imtiyozli diplom" bilan tugallab, 1964-1972 yillar mobaynida ToshDavMI ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida assistenti, 1972-1988 yillar mobaynida kafedra dotsenti lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 1972 yili tibbiyot fanlari doktori, professor N. Ismoilov rahbarligida "Oshqozonga Toshkent mineral suvining ta'siri" mavzusida nomzodlik ishini, 1994 yilda esa "Yurak ishemik kasalligi va alkogolli kardiomiopatiya" mavzusida doktorlik ishini himoya qildi. 1996-1997 yillarda UASH kafedrasida professori, 1997 yildan 2005 yilgacha birinchi ToshDavTI stomatologiya fakultetining ichki kasalliklar va geriatriya kursi mudiri, 2005 yildan 2022 yilgacha Toshkent tibbiyot akademiyasining 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasining professori lavozimida ishlagan.

Olima o'zining 58 yillik pedagogik faoliyati davrida 30 mingdan ortiq yosh mutaxassislarni tayyorlashda qatnashdi. U kishi respublikamizda geriatriya xizmatining yo'lga qo'yilishida tashabbuskorlardan biri hisoblanadi. U kishi rahbarligida geriatriya masalalariga bag'ishlangan ko'plab anjumanlar, seminarlar o'tkazildi, geriatriyaning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy maqolalari, ma'ruzalari va "Geriatrica v deyatelnosti vracha obshiy praktiki" monografiyasi va o'zbek va rus tillarida, "Xospis to'g'risida" risolalari chop etildi. Gerontolog sifatida Jeneva, Budapesht, Moskva shaharlarida o'tkazilgan xalqaro anjumanlarda ishtirok etgan. Olima tomonidan 180 ta ilmiy ishlar va 40 dan ortiq o'quv-uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalar hamda ko'plab ilmiy-ommabop maqolalar chop etilgan. Ayniqsa bu borada olimaning "Shifo-info" gazetasining tahrir a'zosi sifatida olib borgan ishi diqqatga molik. U kishi tomonidan tayyorlangan sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, kasalliklarning oldini olish bo'yicha, ovqatlanish tartibiga rioya qilish, va gerontologiyaga bag'ishlangan maqolalari gazetonlar tomonidan zo'r qiziqish bilan o'qib kelinadi.

Professor N. Nasriddinovaning tibbiyot faniga qo'shayotgan hissasi e'tirof etilib, u kishi tibbiyot-texnika ensiklopediyasiga kiritildi, bir necha bor Faxriy yorliqlar va 2000 yili AQShning "Abi" xalqaro biografik institutining "Oltin medali" bilan mukofotlandi hamda 2021 yili "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Hozirgi zamon pedagogining asosiy fazilatlardan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga nisbatan cheksiz sadoqat uni boshqa kasb egalari bilan ajratib turadi. Zero, pedagog faqat o'z talabalarining ongiga murojaat qilibgina qolmay, balki, ularning his-tuyg'ulariga, irodasiga ta'sir ko'rsatib, aktiv faoliyatga undaydi, buning uchun esa u yaxshi psixologik va pedagogik bilimlarga ega bo'lishi zarur. N. Nasriddinova o'zining ma'ruzalarida aniq bilimlar yuzasidan bilimlar tizimini berishi, fan va texnika yangiliklari bilan tanishtirib, uning muammo va istiqbollari haqida tushunarli va sodda talqin qilishi talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishi hamda ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda samarali rol o'ynashi bilan ajralib turadi.

Umr mazmuni o'z kasbiga fidoyilik bilan yo'g'rilgan inson – Naima Nabiyevna o'zining ish faoliyati davomida talabchan rahbar, jonkuyar pedagog, o'z ishiga sadoqatli, e'tiborli, yoshlarning doimiy maslahatchisi va g'amxo'r ustoz, shu bilan birga samimiy va kamtarin inson sifatida akademiya professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda talabalar orasida katta obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi, ular hurmatini qozondi.

Inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg'usi bilan barhayotdir. Xotira – kechagi o'tmishni, ajdodlar o'g'itini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvarlaridek hayotimizni yoritib turadi. Qadr esa insonni yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag'ishlaydi.

Binobarin, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqishi e'tirof etilgan.

Zero, ta'kidlanganidek: "Yaratganning buyuk va beqiyos mo'jizasi bo'lmish ayol zotini ta'riflash va madh etish uchun har qanday yorqin timsol va tashbehlar kamlik qiladi".

**Shoira QODIROVA,  
Ozimboy JABBAROV**



## HURMAT VA E'ZOZGA ERISHGAN OLIMA

**Ayol – borliq ko'zgusi. Uning go'zalligi olamni charog'on etadi, chunki uning niyati pok, o'zi pok. Shu bois, uni avaylab, asragan yurtning kelajagini porloq deb naql qilishadi. Latofatli, oqila o'zbek ayollari bir qiyofada u ham ona, ham singil, ham shifokor, ham pazanda, ham ustoz, albatta uning qirralari beqiyos hisoblanadi.**

Tibbiyot sohasi xodimlari orasida tibbiyot fanlari doktori, professor Mamlakat Rustamova To'laboyevnaga o'zining kasbiga sadoqati va fidoyiligi bilan ajralib turadigan oq libosli shifokor deya ta'rif berish mumkin.

Izlanuvchan, bolaligidan tirishqoq bo'lgan ustoz 1967 yili o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, shu yili Toshkent Davlat tibbiyot institutining davolash fakultetiga o'qishga kirdi. Olgan bilimlari, ustozlarning o'g'itlari sabab 1973 yili Toshkent davlat tibbiyot institutining davolash fakultetini davolash ishi mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli diplom bilan tugatdi.

Sohaga bo'lgan mehri uni yanada o'rganishga undadi. Mamlakat Rustamova 1973-1978 yillari Moskva shahridagi Kardiologiya ilmiy-tadqiqot institutida klinik ordinatura va aspiranturada tahsil olib, nomzodlik dissertatsiyasini «Dinamika arterialnogo davleniya i funktsionalnoye sostoyaniye ostavlennoy yedinstvennoy pochki bolnix, lechenix nefrektomiyey po povodu simptomaticheskoy arterialnoy gipertenzii» mavzusida muvaffaqiyatli yoqladi. Doktorlik dissertatsiyasini esa 1994 yilda Ikkinchi Toshkent davlat tibbiyot institutida «Rasprostranennost i osobennosti klinicheskogo techeniya xronicheskogo bronxita v regione Yujnogo Priaralya» mavzusida muvaffaqiyatli yoqladi.

Soha rivojiga hissa qo'shishni diliga jo qilgan Mamlakat Rustamovaning 1996 yili sentabr oyida Ikkinchi Toshkent davlat tibbiyot instituti qoshida 2-son Umumiy amaliyot shifokori tayyorlovchi ichki kasalliklar va klinik allergologiya kursi bilan kafedrasini tashkil etilishida o'rni beqiyos. Kafedra tashkil etilishida ustoz faol ish olib bordi va kafedra mudiri etib tayinlandi. O'z o'rnida ta'kidlash joizki kafedraning birinchi tashkilotchisi va asoschisi professor Mamlakat Rustamova hisoblanadi. Ustoz kafedrani 1996 – 2012 yillari va 2017 – 2018 yillari boshqarib keldi.

Kafedraning tashkil topgan dastlabki kunlaridan boshlab ichki kasalliklar fani bo'yicha dolzarb muammolarni yechish ustida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi. Ko'p uchraydigan terapevtik kasalliklarni barvaqt aniqlash va davolash yo'lida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida zamon talablariga javob beruvchi yangi tashxislash, davolash va profilaktika usullari ishlab chiqilib, ular natijasida nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

U tajribali pedagog va ustoz, respublikamiz sog'liqni saqlash tizimida faoliyat ko'rsatishga 50 dan ortiq shogirdlar tayyorlab chiqardi, ular ichida bir nafar fan doktori, 9 nafar fan nomzodi, 11 nafar magistr va 30 dan ortiq klinik ordinatorlar bor. M.Rustamova rahbarligida kafedra xodimlari o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, madaniy-ma'rifiy va xalqaro hamkorlik sohalarda ulkan yutuqlarga erishdi. Professor M.Rustamova va kafedra xodimlari xalqaro va respublikada o'tkazilgan kongress va konferensiyalarda qatnashib, ichki kasalliklarning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalar bilan ishtirok etmoqdalar.

Kafedrada talabalar ilmiy jamiyati, bir nechta to'garaklar faol ish olib bordi, professor rahbarligidagi talabalar Xalqaro olimpiadalarida qatnashib, 1- va 2-o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilib, rivojlantirildi. Bir qancha chet ellik professor-o'qituvchilari

kafedra klinik bazasiga tashrif buyurib, mahorat darslari o'tkazib, ma'ruzalar o'qishdi.

Professor Mamlakat Rustamova "Geriatrya" fanidan o'quv darsligi (kirill va lotin alifbosida), 220 dan ortiq publikatsiyalar, shu jumladan shifokorlar uchun "Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarini tashxislash va davolash standartlari" o'zbek va rus tillarida, 30 dan ortiq metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar muallifi hisoblanadi.



Uning rahbarligi ostida bajarilgan ilmiy ishlar natijalari TTA klinikalari, Respublika maxsus ilmiy amaliy Ftiziatriya va pulmonologiya markazida, Gastroenterologiya ilmiy markazida amaliyotga tatbiq etilgan, o'quvchilari qo'llagan usullar tibbiyot amaliyotida oshqozon ichak va nafas tizimi kasalliklari bor bemorlar hayoti sifatini yaxshilashga yordam berib kelmoqda.

Ustoz yetti yil davomida TTA bo'yicha Surxondaryo viloyatida namunali QVPLar tashkillashtirish va metodik yordam ko'rsatishga mas'ul bo'lib ish olib bordi. Hozirda Andijon davlat tibbiyot instituti qoshidagi himoyalar bo'yicha Maxsus ilmiy kengash a'zosi, Sog'liqni saqlash vazirligi diyetologiya bo'yicha konsultanti, 1-davolash fakulteti ilmiy kengashi raisi o'rinbosari vazifalarini faollik bilan bajarib kelmoqda.

Bundan tashqari, kafedrada terapiya mutaxassisligi bo'yicha klinik ordinatorlarga ustoz sifatida yoshlar tarbiyasiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Aholi orasida sog'lom turmush tarzi va ratsional ovqatlanish afzalliklarini targ'ibotiga ham alohida e'tibor qaratib kelayotgan ustoz telekanallar orqali namoyish etiladigan maxsus ko'rsatuvlarda chiqishlar qiladi.

Ustoz turli yillarda rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borib, soha rivojiga munosib hissa qo'shdi. Oliy ta'lim sohasida sifatli va malakali kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari hamda ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasi uchun 2000 yili «O'zbekiston Respublikasi Tibbiyot a'lochisi» medali bilan taqdirlandi.

Shogirdlari va u bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lganlarning barchasining katta mehr-muhabbat va hurmatiga loyiq bo'lgan Mamlakat Rustamova kamtarligi, yuksak bilimdonligi, qalb kengligi va mehribonligi bilan ajralib turadi. Ustozning fan sohasiga qo'shgan hissasi, shogirdlar tayyorlashdagi qimmatli o'g'itlari tahsinga sazovor. So'zimiz so'nggida ustozning umrlari uzun, ilm-fan rivojiga ko'p yillar hissa qo'shish nasib qilishini tilab qolamiz. Necha minglab xasta dillarga shifo bag'ishlayotgan qo'llaringiz aslo tolmasin.

**Fotima IRISALIYEVA,**  
t.f.d, dotsent,  
**Qutbiddin NIZOMOV,**  
Sog'liqni saqlash a'lochisi



## O‘Z KASBINING FIDOYISI

***Kasblar orasida shifokorlik alohida qadrlanib kelinadi. Aynan shifokor, tibbiyot sohasi xodimi uchun insonlar hayotini saqlab qolish, dardiga malham bo‘lishdan o‘rtiq baxt yo‘qdir.***

Mamlakatimiz ajoyib shifokorlar, tibbiyot sohasi rivojiga munosib hissa qo‘shayotganlarga boy hisoblanadi. Ularning ko‘pchiligini nomi tibbiyot tarixiga kirgan, ular o‘z burchi, o‘z kasbi, o‘z Vatanga sadoqatli xizmat qilish namunasi hisoblanadi. Ana shundaylardan biri professor, biologiya fanlari doktori, juda ko‘plab shogirdlarning sevimli murabbiysi Paraxat Alimxodjayeva Rustamovna 20 yildan buyon Toshkent tibbiyot akademiyasining nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasida faoliyat yuritib kelmoqda.

Respublikaning yetakchi olimalaridan bo‘lgan Paraxat Alimxodjayeva o‘z kasbining yetuk mutaxassisi sifatida O‘zbekiston va boshqa ko‘plab mamlakatlarda tanilganini alohida ta’kidlash joiz. Tibbiyot rivojiga hissa qo‘shib kelayotgan P.Alimxodjayeva 1943 yilda xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Ilmga chanqoq ustoz 1966 yili Toshkent Davlat meditsina institutini tugatib, 1966-1985 yilda Toshkent Davlat meditsina institutining biologiya kafedrasining assistenti sifatida faoliyat olib bordi. Tinimsiz ishlashdan charchamaydigan Paraxat Alimxodjayeva 1966 yilda Tibbiy genetika yo‘nalishi bo‘yicha Moskva shahrida malaka oshirib kelib, O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib genetika va tibbiy genetika fanini o‘qitishni boshladi. Ustozning tibbiyot sohasi rivojiga munosib hissa qo‘shishga intilganini mehnat faoliyatidan ko‘rish mumkin. 1985 – 1988 yillari Toshkent Davlat tibbiyot instituti biologiya kafedrasining katta o‘qituvchisi, 1988 – 1994 yillarda shu kafedraning dotsenti, 1994 – 1995 yillari Birinchi Toshkent davlat tibbiyot instituti Markaziy Ilmiy-tekshirish laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, 1996 – 2005 yillar Birinchi Toshkent Davlat tibbiyot instituti tibbiy biologiya va genetika kafedrasining kafedra mudiri bo‘lib faoliyat yuritdi.

Alohida ta’kidlash joizki P.Alimxodjayeva tibbiyot genetikasining dolzarb muammolarining yechimida katta hissa qo‘shdi, ko‘plab shogirdlari bilan irsiy va tug‘ma kasalliklarning oldini olish bo‘yicha ishlar olib bordi. Izlanishlar samarasi 2002 yilda

«Hujayra biologiyasi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan ustoz 2005-2006 yillargacha mazkur kafedrani boshqardi.



Uning sa’y-harakati bilan respublikada ilmiy-pedagogik va malakali amaliyot vrachlari tayyorlandi. Jumladan, ko‘plab tibbiyot fanlari nomzodlari va tibbiyot doktorlarni tayyorlashga hissa qo‘shdi. E’tirof etish joizki uning shogirdlari respublika bo‘ylab tibbiyotning barcha sohalarining rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Quvonarlisi shogirdlarning ko‘pchiligi hozirgi kunda mamlakatimizning tibbiyot oliy o‘quv yurtlari, respublika viloyat ilmiy-tekshirish institutlarida rahbarlik qilmoqda. P.Alimxodjayeva 100 dan ortiq ilmiy mahalliy va xorijiy maqolalar, 10 dan ortiq monografiya va darsliklar yaratdi. Uning chuqur ilmiy salohiyati va tajribasi mamlakatimiz hududlarida tibbiy yordam ko‘rsatish darajasini oshirish, tibbiy maslahatlar berishga ko‘maklashdi. Mehnat faoliyati davomida irsiy va tug‘ma kasalliklarni kamaytirishga mas’ul edi.

TTA ilmiy kengashi a’zosi, dunyoda o‘tkazilgan ko‘plab ilmiy anjumanlarda ishtirok etib, taqdimotlar qilib, yurtimiz tibbiyotda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar xususida ma’lumotlar berib o‘tdi. P.Alimxodjayeva bir necha grant ilmiy tadqiqot loyihalariga rahbarlik qilgan. O‘zbekistonda tibbiyot genetikasi fani rivojiga ulkan hissa qo‘shganini alohida ta’kidlash joiz. 2014 yildan shu kungacha Toshkent tibbiyot akademiyasi nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasining professori lavozimida ishlab kelmoqda.

Fursatdan foydalanib ustozga uzoq umr, shod va quvonchli kunlar hamda kelajakda mustahkam sog‘liq va barqaror farovonlik tilaymiz.

**G.RAHIMBAYEVA,**  
tibbiyot fanlari doktori, professor





Ustoz! Muallim! Mudarris!  
Murabbiy!

Bu so'zlar naqadar purma'no va sermazmun. Bu so'zlarni eshitganda qalblar junbushga kelib, ko'ngillar yorishib ketadi. Zero, esimizni tanigan ilk onlarimizdan boshlab aynan ana shunday zotlar bizning qo'limizdan tutib kelmoqda.

Ustoz va murabbiylar jamiyat binosining binokorlari, ma'rifat bog'ining bog'bonlaridir. Ular hayot bo'stonidagi niholning baquvvat daraxtga aylanishi uchun beqiyos mehnat qiladi. Shuning uchun ham uning shogird ustidagi haqqi benihoya katta va ulug'dir. Shunday murabbiylardan biri ustozimiz Islom Mullajonovdir.

Islom Mullajonov Toshkent tibbiyot akademiyasida 1980 yildan buyon faoliyat ko'rsatib keladi. "Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika" kafedrasida biofizika, tibbiy elektronika, umumiy va tibbiy radiobiologiya, tibbiy elektronika fanlaridan ko'p yillar murabbiylik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirib, bo'lajak tibbiyot xodimlarini tayyorlashda o'zining bebaho hissasini qo'shib kelmoqda.

Dotsent, fizika-matematika

## ILMGA BAXSHIDA UMR

*Ustoz – muallimsiz qolganda zamon,  
Nodonlikdan qaro bo'lardi zamon.*

**Abdurahmon Jomiy**

fanlari nomzodi Islom Mullajonovning umumiy mehnat staji deyarli 50 yilni tashkil etadi. 1977 yildan boshlab M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universitetida aspiranturada tahsil olib, «Kaliy fosfatlarning suvli eritmalari strukturasi va undagi hajmiy o'zgarishlarni ultratovush yordamida aniqlash» mavzusi ustida ish olib bordi. Ilmiy ish rahbarlari professor, kimyo fanlari doktori, Rossiyada fan va texnika bo'yicha xizmat ko'rsatgan fan arbobi N.A.Figurovskiy va fizika-matematika fanlari doktori, akademik P.Xabibullayevlar bilan hamkorlikda bir necha kashfiyotlar muallifi bo'lgan.

1985 yilda "Tibbiy-biologik fizika" darsligini rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. 2005 yilda professor S.Yuldashyev, dotsent H.Rahimovalar bilan hamkorlikda o'zbek tilidagi ushbu darslikni lotin grafikasiga o'girishda o'z hissasini qo'shgan.

Kafedrada "Biofizika", "Tibbiyot texnikasi", "Tibbiy elektronika" fanlaridan tayyorlangan 10 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalarga mualliflik qilish bilan birga 80 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifidir.

Islom Mullajonov "Biofizika", "Tibbiyot texnikasi", "Tibbiy elektronika", "Umumiy va tibbiy radiobiologiya" fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish

bilan bir qatorda 1980-2009 yillar mobaynida tarbiyaviy ishlar bo'yicha, o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini, iqtisodiyot va xo'jalik ishlari bo'yicha prorektor yordamchisi sifatida faoliyat ko'rsatib keldi.

Islom Mullajonov shogirdlari va o'ziga nisbatan talabchan, ularni doimo Vatanga muhabbat, o'z kasbiga sadoqat ruhida tarbiyalashini e'tirof etish lozim. I.Mullajonovning tibbiyot akademiyasida qilgan samarali mehnati yuqori baholanib, 2014 yilda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni topshirilgan.

I.Mullajonov ko'p yillik samarali mehnati tufayli hamkasblari va shogirdlarining mehr-muhabbatiga sazovor bo'lib keldi. Uning xonasi doimo shogirdlar bilan gavjum. Ular ustozdan har vaqt hayotda va ish faoliyatlarida kerak bo'ladigan maslahatlarni oladilar.

Baxtimizga doimo sog'-salomat bo'lib, yo'limizni yoritib yuring Ustoz!

*Yo'qdan Beruniylar binolar qilgan,  
Mashrabni mashhuri dunyo qilgan.  
Husaynni Ibn Sinolar qilgan,  
Iloh so'z o'rgatgan kim?  
Oddiy muallim-da, oddiy muallim.*

**Biotibbiyot muhandisligi,  
informatika va biofizika  
kafedrasida pedagoglari**

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.

Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi